O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Jizzax davlat pedagogika instituti
Fizika o’qitish metodikasi kafedrasi

DONIYOROV SH., FARMONOV O’., HAMZAYEV. H

Fizikadan rasmlarda tasvirlangan tarqatma materiallar

(E l e k t r)

O’quv uslubiy qo’llanma

Jizzax-2017

UDK
BBK
A

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika institutining 2017 yil _____ dagi №____- sonli ilmiy kengash qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu qo'llanma pedagogika institutining "fizika-astronomiya o'qitish metodikasi" mutaxassisliklari dasturi asosida yozilgan bo'lib, unda bakalavriat talabalarining Umumiy fizika (elektromagnetizm) fanidan bajarishlari lozim bo'lgan laboratoriya ishlari berilgan. Qo'llanma elektr va magnit hodisalariga oid 12 ta laboratoriya ishlarini o'z ichiga olgan.

UDK
BBK
A

Tuzuvchilar: f.m.f.n. Doniyorov SH.
o'qituvchi Farmonov O'.M.
o'qituvchi Hamzaev H

Ma'sul muharrir: f.m.f.n. Mo`minov I Fizika o`qitish metodikasi kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar: Fizika-matematika fakulteti fizika o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri
f.m.f.d. professor R.N. Bekmirzayev
Jizzax Politexnika instituti dotsenti
f.m.f.n. E. Rabbimov

ISBN _____

Kirish

Ushbu qo’llanmada taklif qilinayotgan rasmli topshiriqlar o’quvchilarda elektr zanjirlariga oid tushunishlarni va ularni yig’a olishlari, elektr asboblarini ko’rsatgan qiymatlarni o’qiy olishlari, elektromagnit qurilmalari hamda oddiy zanjirlarni tahlil qila olishlari, shu bilan birga elektr zanjirlariga asoslangan holda turli masalalarni hal qila olishlariga yordam berishdan iborat.

Ushbu qo’llanmadan foydalanish ko’rgazmali topshiriqlar uchun ajratilgan vaqtdan yutishga va turli jixozlar yetishmovchiligida juda ham qo’l keladi.

Sababi: ushbu qo’llanmadagi har bir rasmli topshiriqdan foydalanishda yechimida keltirilgan ma’lumotlardan o’quvchi va o’qituvchi tomonidan o’tkaziladigan tajribalarda foydalanish imkoniyati yaqqol keltirilgan.

Qo’llanma 16 ta rasmli topshiriqni o’z ichiga olib, har bir topshiriq to’rtta variant ko’rinishida berilgan. Har bir variant esa bir necha topshiriqni o’z ichiga oladi. Bu topshiriqlar darslikdagi elektr bo’limiga ta’luqli turli bob va mavzularga tegishlidir.

Shuning uchun rasmli topshiriqlardan foydalanganda o’tilayotgan mavzularga tegishli variantlarni yechish maqsadga muvofiq.

Qo’llanmada maktab darsligida berilgan mavzulardan tashqari mustaqil ishlashlari uchun ham o’rta qiyinchilikka ega bo’lgan topshiriqlar o’rin egallagan.

Ushbu qo’llanmadagi rasmli topshiriqlarni o’quvchilarga mustaqil yechishlari uchun uy vazifasiga qo’shimcha topshiriq sifatida har bir o’quvchiga bitta variantdan navbatma – navbat berib yuborish imkoniyatiga ega, bu bilan o’quvchilarda elektr hodisalariga oid tushuncha, ko’nikma va malakalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo’lishi mumkin.

Oquvchilarning mustaqil ishlashlari uchun qo’llanma yaratish borasida dastlabki urinish bo’lgani uchun u kamchiliklardan holi emas deb hisoblaymiz.

Qo’llanmani yaxshilashga qaratilgan takliflarni samimiyat bilan qabul qilamiz.



1a rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirining prinsipial sxemasini chizing.
2. Lampa qisqichlaridagi kuchlanishni aniqlang.
3. Lampaning qarshiligini toping.
4. Lampaning quvvatini toping.
5. Lampa kuyib qolsa voltmeter qanday kuchlanishni ko'rsatadi?

1-a rasmning yechimi

1.



2. Lampa qarshiligiga nisbatan ampermetr ichki qarshiligini hisobga olmas darajada kichikligidan ampermetrdagi kuchlanish tushuvini 0 ga teng deb olish mumkun. U holda voltmetr lampadagi kuchlanishni ko'rsatadi, ya'ni, U_L = 120 V.

3. $R_L = \frac{U_L}{I} = \frac{120V}{0.3A} = 400\Omega$

4. P = 120 V 0,3 A = 36 Vt.

5. Voltmetr ko'rsatishi oshadi, ammo lampa kichik quvvatli bo'lgani uchun bu kam seziladi.



1b rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirning prinspial sxemasini chizing.
2. Reostat qisqichlaridagi kuchlanishni toping.
3. Reostatning kuchlanish ostidagi qismini qarshiligini toping.
4. Reostatning kuchlanish ostidagi qismini quvvatini toping.
5. Agar o'tkazgichlar reostatning AB qisqichlaridan uzib, AC qisqichlarga ulansa, voltmeter ko'rsatishi qanday o'zgaradi? Buni qanday tushuntirish mumkin?

1-b rasmning yechimi

1.



2. Reostatning ulangan qismiga nisbatan ampermetrning ichki qarshiligi hisobga olmas darajada kichik bo'lganligidan ampermetrdagi kuchlanish tushuvini 0 ga teng deb olish mumkun. U holda voltmeter reostat qisqichlaridagi kuchlanishni ko'rsatadi, ya'ni, UR = 100 V.

3. Reostatning ulangan qismini qarshiligi Om qonuniga binoan topiladi:

$$R = \frac{U}{I} = \frac{100V}{7A} = 14{,}3\ \Omega.$$

4. Reostatning ulangan qismidagi quvvat asboblarning ko'rsatishi asosida topiladi:

P = I U = 100 V 7 A = 700 Vt.

5. Voltmetr reostatning AC qisqichlariga ulanganda uning ko'rsatishi ikkita sababga ko'ra kamayadi:

a) U zanjirning kam qarshilikli qismidagi kuchlanishni o'lchaydi. (Bunda ampermetrdagi kuchlanish tushuvi hisobga olinmaydi)

b) Voltmetr bilan ketma – ket reostat surgichi va c qisqich orasidagi qarshiligi ham qo'shiladi.



1c rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirining prinspial sxemasini chizing.
2. Reostatning BC qisqichlari orasidagi qarshiligini toping.
3. Agar voltmetrni reostatning AB qisqichlariga ulansa, uning ko'rinishi qanday o'zgaradi? Shu kuchlanishni aniqlang.
4. Reostat quvvatini toping.
5. Agar reostat surgichini o'ngga sursak, voltmeter ko'rsatishi qanday o'zgaradi?

1-c rasmning yechimi

1.



2. $R_{BC} = \frac{U}{I} = \frac{75V}{2A} = 35.5\Omega$

3. Voltmetr ko’rsatishi oshadi, chunki u katta qarshilikdagi kuchlanishni o’lchaydi. Voltmetr ko’rsatishini quyidagicha aniqlash mumkin:

$U_v = R_r\ I = 80\Omega\ 2A = 160$ V.

4. P = I U = 2 A 75 V = 150 Vt.

5. Voltmetr kichik qiymatni ko’rsatadi, chunki u kichik qarshilikdagi kuchlanishni o’lchaydi.



1d rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirining prinspial sxemasini chizing.
2. Lampaning qarshiligini toping.
3. Tok manbai qisqichlaridagi kuchlanishni toping.
4. Lampaning quvvatini toping.
5. Agar lampa kuyib qolsa, voltmeter ko’rsatishi qanday o’zgaradi?

1-d rasmning yechimi

1.



2. $R_L = \frac{U_L}{I} = \frac{3V}{0.2A} = 15\Omega$.

3. $U_m = 3$ V.

4. $P_L = U_L\ I = 3$ V 0,2 A = 0,6 Vt.

5. Voltmetr ko’rsatishi oshadi.

2-topshiriq



2a rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirining prinsipial sxemasini chizing.
2. № 2 reostatning quvvatini toping.
3. Agar № 1 reostatning surgichini A nuqtadan B nuqtaga sursak, kuchlanish qanday oraliqda o'zgaradi?
4. Zanjirning faktik quvvatini toping.
5. № 2 reostatdagi kuchlanishni toping.
6. Butun zanjirni nominal qiymatini toping.

2–a rasmning yechimi

1.



2 $P = I^2 R = (0{,}2\ A)^2\ 10\Omega = 0{,}4\ Vt.$

3. Kuchlanish 2 V dan 0 V gacha o'zgaradi.

4. $P_Z = I^2 R_1 + I^2 R_2 = (0{,}2\ A)^2\ 10\ \Omega + (0{,}2\ A)^2 10\Omega = 0{,}8\ Vt.$

5. $U_2 = I\ R_2 = 0{,}2\ A\ 10\ \Omega = 2\ V.$

6. $P = I^2\ R_1 + I^2 R_2 = (2\ A)^2 10\ \Omega + (2\ A)^2\ 10\ \Omega = 80\ Vt.$



2 b rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirning prinspial sxemasini chizing.
2. Bitta lampadagi kuchlanishni toping.
3. Agar barcha lampalar bir xil bo’lsa, bitta lampaning qarshiligini toping.
4. Bitta lampa kuyib qolsa, voltmetr ko’rsatishi qanday o’zgaradi?
5. Butun zanjirning faktik qarshiligini toping.
6. Butun zanjirning nominal quvvatini toping.

2–b rasmning yechimi

1.



2. $U_L = \frac{5V}{2} = 2{,}5$ V.

3. $R_L = \frac{U_L}{I} = \frac{2.5V}{0.1A} = 25\ \Omega$

4. Voltmetr ko’rsatishi oshadi.

5. P = I U = 5 V 0,1 A = 0,5 Vt.

6. P = 2 U_L I = 2 3 V 0,2 A = 1,2 Vt.



2 c rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirning prinspial sxemasini chizing.
2. Agar lampa № 1 kuyib qolsa, voltmetr ko’rsatishi qanday o’zgaradi?
3. Butun zanjirning faktik quvvatini aniqlang.
4. № 1 lampaning nominal qarshiligini aniqlang.
5. № 1 lampadagi kuchlanishni aniqlang.
6. Qaysi lampa ravshanroq yonadi? Nimaga?

2– c rasmning yechimi

1.



2. Voltmetr ko’rsatishi oz miqdorda oshadi.

3. P = I U = 125 V 0,2 A = 25 Vt.

4. $R_L = \frac{U^2}{P} = \frac{(127V)^2}{40Vt} =$ 403 Ω.

5. U_{L1} = 0,2 A 403Ω = 80,6 V.

6. № 1 lampaning qarshiligi katta bo'lgani sababli unda kuchlanish tushuvi sodir bo'lib, u ravshanroq yonadi.



2 d rasm

1. Rasmdagi elektr zanjiriing prinsipial sxemasini chizing.
2. № 1 lampaning nominal qarshiligini toping.
3. Agar voltmetrni AB qisqichlarga ulasak, uning ko'rsatishi qanday o'zgaradi?
4. № 2 lampadagi nominal tokni aniqlang.
5. Agar № 1 lampa kuyib qolsa, voltmetr ko'rsatishi qanday o'zgaradi?
6. Zanjirdagi tok kattaligini aniqlang.

2- d rasmning yechimi

1.



2. $R_{L1} = \frac{U^2}{P} = \frac{(220V)^2}{80Vt} =$ 605Ω.

3. Voltmetr ko'rsatishi oshadi.

4. $I_2 = \frac{U_2}{R_{L2}} = \frac{220V}{605A} =$ 0,36 A.

5. Voltmetr ko’rsatishi oshadi, chunki uning qarshiligi lampa qarshiligidan katta. Bu holda voltmetr o’zining xususiy qarshiligidagi kuchlanish tushuvini ko’rsatadi.

6. $I_2 = \frac{U_{L1}}{R_{L1}} = 0{,}17$ A

3-topshiriq



3 a rasm

1. Rasmdagi elektr zanjiriing prinsipial sxemasini chizing.
2. A va C, B va C, C va D qisqichlarga ulangan voltmetr qanday kuchlanishni o’lchaydi?
3. A va B qisqichlarga ulangan voltmetr kalit ulangan va ulanmagan holda nimani o’lchaydi.
4. Agar lampalardan bittasi kuyib qolsa, voltmetr ko’rsatishi qanday o’zgaradi.
5. Agar reostat surgichi chapga surib qo’yilsa, lampalardagi kuchlanish qanday o’zgaradi.
6. Zanjirdagi reostat vazifasi nimadan iborat?
7. Agar rheostat surgichi o’ngga surib qo’yilsa, zanjidagi tok kattaligi qanday o’zgaradi.
8. Zanjirdagi tok qiymatini toping.

3–a rasmning yechimi

1.



2. A va C qisqichlarga ulangan voltmetr, parallel ulangan lampalardagi kuchlanishni o'lchaydi. Voltmetr B va C qisqichlarga ulanganda butun zanjirdagi kuchlanishni o'lchaydi, C va D qisqichlarga ulanganda esa o'tkazgich oxiridagi deyarli nolga teng bo'lgan kuchlanishni o'lchaydi.

3. Voltmetr reostatdagi kuchlanish tushuvini o'lchaydi. Rubilnik ajratilgan holatda voltmetrdagi kuchlanish nolga teng bo'ladi.

4. Voltmetr ko'rsatishi kam miqdorda oshadi.

5. Kuchlanish kamayadi.

6. Reostat lampadagi kuchlanishni kamaytiradi.

7. Tok oshadi, chunki zanjir qarshiligi kamayadi.

8. Lampa qarshiligini uning pasportida ko'rsatilgan kattaliklardan foydalanib topish mumkin:

$$R_L = \frac{U^2}{P} = \frac{(127V)^2}{40Vt} = 403\Omega$$

Lampadagi tok:

$$I_L = \frac{U_L}{R_{L1}} = \frac{63.5V}{403\Omega} = 0{,}13\ A$$

Zanjirdagi tok lampadagi tokning ikkilangan qiymatiga teng bo'ladi: $U_Z = I_L\ 2 = 0{,}13\ A\ \ 2 = 0{,}26\ A$.



3 b rasm

1. Rasmdagi zanjirning prinsipial elektr sxemasini chizing.
2. A va C, B va C, A va D qisqichlarga ulangan voltmetr qanday kuchlanishni o'lchaydi.
3. A va B qisqichlarga ulangan voltmetr kalit ulangan va ulanmagan hollarda nimani o'lchaydi?

4. Agar lampalardan bittasi kuysa, voltmetr ko’rsatishi o’zgaradimi. Javobingizni asoslang.
5. Agar reostat surgichi chapga surilsa, lampalardagi kuchlanish qanday o’zgaradi.
6. Zanjirdagi reostatning vazifasi nima?
7. Agar reostat surgichini o’ngga surilsa, zanjirdagi tok kattaligi qanday o’zgaradi.
8. Zanjirdagi tok qiymatini toping.

3–b rasmning yechimi

1.



2. A va C qisqichlarga ulangan voltmetr parallel ulangan lampalar tugunlaridagi kuchlanishni o’lchaydi. Agar uni B va C qisqichlarga ulansa, butun zanjirdagi kuchlanishni o’lchaydi, A va D qisqichlarda esa reostatdagi kuchlanishni o’lchaydi.

3. Rubilnik ulangan holatda voltmetr reostatdagi kuchlanishni o’lchaydi, Rubilnik ulanmagan holatda esa batareyadagi EYuKni o’lchaydi.

4. Kuchlanish oshadi, chunki zanjir qarshiligi (parallel tarmoqdagi lampalardan bittasi) oshadi.

5. Kuchlanish pasayadi, chunki butun zanjirdagi qarshilik oshadi.

6. Reostat lampalardagi kuchlanishni kamaytiradi.

7. Reostat surgichini o’ngga surganda butun zanjir qarshiligi kamayadi, bu esa tokning oshishiga olib keladi.

8. Bitta lampadagi tokni topamiz. Lampadagi kuchlanish voltmeter ko’rsatgan kuchlanishning yarmisiga teng bo’ladi, chunki barcha lampalarning qarshiligi bir xil. Lampalarning qarshiligini ularning pasportida ko’rsatilgan kattaliklardan foydalanib topamiz*:

* Lampa qarshiligi uning cho’g’lanish tolasini normal ish rejimida aniqlanadi. Lampalar cho’g’lanish tolasining harorati o’zgarishidan qarshiligining o’zgarishini masalalar yechishda hisobga olmaymiz.

$$R_L = \frac{U_L}{I} = \frac{1V}{0.2A} = 5\ \Omega.$$

U holda lampadagi tok:

$$I_L = \frac{U_L}{R_L} = \frac{0.5V}{5\Omega} = 0{,}1\ A.$$

Zanjirdagi tok: $I_Z = 2\ I_L = 2\ 0{,}1\ A = 0{,}2\ A$



3 c rasm

1. Rasmdagi zanjirning prinsipial elektr sxemasini chizing.
2. A va C, B va C, A va D qisqichlarga ulangan voltmetr qanday kuchlanishni o'lchaydi.
3. A va B qisqichlarga ulangan voltmetr kalit ulangan va ulanmagan hollarda nimani o'lchaydi?
4. Agar lampalardan bittasi kuysa, voltmetr ko'rsatishi qanday o'zgaradi?
5. Agar reostat surgichi chapga surilsa, lampalardagi kuchlanish qanday o'zgaradi?
6. Zanjirdagi reostatning vazifasi nima?
7. Agar reostat surgichini o'ngga surilsa, zanjirdagi tok kattaligi qanday o'zgaradi.
8. Voltmetrning rasmdagi ulanish bo'yicha zanjirdagi tok kattaligini toping.

3-c rasmning yechimi

1.



2. A va C qisqichlarga ulangan voltmetr parallel ulangan barcha lampalardagi kuchlanishni o'lchaydi. B va C qisqichlarga ulanganda ham A va C qisqichlarda

o’lchangan kuchlanishni o’lchaydi. A va D qisqichlarga ulanganda esa reostatdagi kuchlanish o’lchanadi.

3. Voltmetr tok manbai qisqichlaridagi kuchlanishni o’lchaydi, chunki voltmetrdan o’tayotgan tokning kichikligidan zanjirdagi kuchlanish tushuvini hisobga olmaslik mumkin.

4. Kuchlanish oshadi, chunki zanjirning ko’rilayotgan qismidagi qarshilik oshadi.

5. Lampadagi kuchlanish kamayadi, chunki tashqi zanjir qarshiligi oshadi, bu esa lampadagi tok va kuchlanishning kamayishiga olib keladi.

6. Reostat lampadagi kuchlanishni kamaytiradi.

7. Zanjirdagi tok oshadi, chunki zanjirning qarshiligi kamayadi.

8. Avval bitta lampa zanjiridagi tokni aniqlash kerak. Zanjirdagi tok esa lampadagi tokning ikkilangan qiymatiga teng bo’ladi. Lampadagi kuchlanishning minimal qiymatida undagi tok ham minimal qiymatga ega bo’ladi, ya’ni 0,2 A. U holda zanjirdagi tok 0,4 A ga teng bo’ladi.



3 d rasm

1. Rasmdagi zanjirning prinsipial elektr sxemasini chizing.
2. A va C, B va C, A va D qisqichlarga ulangan voltmetr qaysi kuchlanishni o’lchaydi.
3. A va B qisqichlarga ulangan voltmetr kalit ulangan va ulanmagan hollarda nimani o’lchaydi?
4. Agar lampalardan bittasi kuysa, voltmetr ko’rsatishi qanday o’zgaradi?
5. Agar reostat surgichi chapga surilsa, lampalardagi kuchlanish qanday o’zgaradi?
6. Zanjirdagi reostatning vazifasi nimadan iborat?
7. Agar reostat surgichini o’ngga surilsa, zanjirdagi tok qanday o’zgaradi.
8. Zanjirdagi tokning qiymatini toping.

3-d rasmning yechimi

1.



2. A va C qisqichlarga ulangan voltmetr lampadagi kuchlanishni o'lchaydi. A va C qisqichlarga ulangan voltmetr butun zanjirdagi kuchlanishni o'lchaydi, A va D qisqichlarga ulanganda esa o'tkazgich oxiridagi deyarli nolga teng bo'lgan kuchlanishni o'lchaydi.

3. Rubilnikning ulangan holatida voltmetr reostatdagi kuchlanish tushuvini o'lchaydi. Ajratilgan rubilnikda esa, tok manbai qisqichlaridagi kuchlanishni o'lchaydi. Chunki voltmetrdan o'tayotgan kichik tokdagi kuchlanish tushuvini hisobga olmaslik mumkin.

4. Voltmetr ko'rsatishi oshadi, chunki lampalardan bittasi kuyganda zanjirning voltmetr ulangan qismlaridagi qarshilik oshadi, bu esa zanjirda kuchlanishning qayta taqsimlanishiga olib keladi.

5. Lampalardagi kuchlanish oshadi, chunki reostat surgichining chapga surilishi reostat ulangan qismdagi qarshilikning kamayishiga olib keladi, bu esa parallel ulangan lampalar guruhi bilan reostat orasida kuchlanishning qayta taqsimlanishiga olib keladi. Bu hodisani boshqacha tushuntirish ham mumkin. Reostat surgichining chapga surilishi butun zanjirdagi qarshilikning kamayishiga va undagi tokning oshishiga olib keladi. Tokning oshishi kuchlanish tushuvining oshishiga olib keladi.

6. Zanjirdagi reostat lampadagi kuchlanishni kamaytiradi.

7. Zanjir qarshiligi oshganligi sababli undagi tok kamayadi.

8. Minimal kuchlanishda lampadagi tok ham minimal bo'ladi, shuning uchun zanjirdagi tok lampadagi tokning ikkilangan qiymatiga teng bo'ladi, ya'ni:

$$U_Z = 2\,I_L = 2 \quad 0{,}25\ A = 0{,}5\ A.$$

4-topshiriq



4 a rasm

1. Rasmdagi zanjiriing prinsipial elektr sxemasini chizing.
2. № 1 lampadagi tok qiymatini toping.
3. № 2 lampa kuyib qolsa ampermetrning ko’rsatishi qanday o’zgaradi?
4. Har bir lampani qisqichlardagi kuchlanishning taqribiy qiymatini toping.
5. Zanjirdagi qarshilikning qiymatini toping.

4-a rasmning yechimi

1.



2. $I_{L1} = I_{L2} = I_{L3} = 0{,}5$ A.

3. Ampermetr ko’rsatishi nolga teng bo’ladi.

4. Lampadagi kuchlanishni aniqlash uchun oldindan uni sokolida ko’rsatilgan kattaliklardan foydalanib qarshiligini topish kerak, ya’ni:

$$R_L = \frac{U_L^2}{P} = 269\ \Omega$$

$U_L = R_L I_L = 269\Omega \cdot 0{,}5\ A = 134{,}5$ V.

5. $R_Z = \frac{R_L}{n} = \frac{269\Omega}{3} = 89\ \Omega$.



4 b rasm

1. Rasmdagi zanjiriing prinsipial elektr sxemasini chizing.
2. Bitta lampadagi tok qiymatini toping.
3. Agar zanjirdagi lampa kuyib qolsa, ampermetrning ko'rsatishi qanday o'zgaradi?
4. Har bir lampa qisqichlardagi kuchlanishni toping.
5. Zanjirdagi qarshilikning qiymatini toping.

4-b rasmning yechimi

1.



2. $I_L = \frac{I_Z}{n} = \frac{0.54A}{3} = 0{,}18$ A.

3. Ampermetr ko'rsatishi 3 marta kamayadi. Ammo bu top shiriqni aniqroq ko'rib chiqib shuni aytish kerakki, zanjirdagi tok kamayishi 3 martadan kamroq bo'ladi.

Bu quyidagicha tushuntiriladi: Lampalardan ikkitasi kuyib qolganda reostat va qolgan lampa o'rtasida kuchlanishni qayta taqsimlanishi ro'y beradi. Lampadagi kuchlanish ortadi, chunki zanjirdagi tok kamayishi sababli reostatdagi kuchlanish

tushuvi kamayadi, bu esa lampadagi tokning 3 ta lampaning kuyishidan oldingi tokiga nisbatan biroz oshishiga olib keladi.

4. $U_L = I_L R_L = I_L \frac{U_L^2}{P} = 0{,}18\ A \frac{(220V)^2}{40Vt} = 218\ V.$

5. Reostat surgichi holatidan shunday fikrlash mumkinki, zanjirda uning qarshiligini yarmisi, ya'ni, 15Ω ishtirok etadi. Parallel ulangan lampalarning (Rn) qarshiligini Om qonuniga binoan topamiz:

$$R_n = \frac{U_L}{I_Z} = \frac{218V}{0.54A} = 404\ \Omega. \qquad \text{U holda } R_Z = 404\Omega + 15\Omega = 419\ \Omega$$



4 c rasm

1. Rasmdagi zanjiriing prinsipial elektr sxemasini chizing.
2. Bitta lampadagi tokning qiymatini toping.
3. Agar zanjirdagi lampa kuyib qolsa, ampermetrning ko'rsatishi qanday o'zgaradi?
4. Har bir lampa qisqichlardagi kuchlanishni toping.
5. Zanjirdagi qarshilikning qiymatini toping.

4–c rasmning yechimi

1.



2.

$$I_L = \frac{I_Z}{n} = \frac{2.5A}{3} = 0{,}83\ \text{A}.$$

3. Ampermetr ko'rsatishi kamayadi, chunki zanjir qarshiligi oshadi.

4. $$U_L = I_L R_L = I_L \frac{U_L^2}{P} = 0{,}18\ \text{A}\ \frac{(4V)^2}{10Vt} = 1.3\ \text{V}.$$

5. Yechimidan ko'rinadiki, reostatning ishchi qismini qarshiligi taxminan 5ni tashkil qiladi. Parallel ulangan barcha lampalarning (Rn) qarshiligini Om qonuniga binoan topamiz:

$$R_n = \frac{I_L}{I_Z} = \frac{1.3V}{2.5A} = 0{,}52\ \Omega.$$

Zanjirning to'la qarshiligi esa:

$$R_Z = R_n + R_r = 0{,}52\ \Omega + 5\ \Omega = 5{,}52\ \Omega\ .$$



4 d rasm

1. Rasmdagi zanjiriing prinsipial elektr sxemasini chizing.
2. Bitta lampadagi qarshiligini toping.
3. Zanjirning A vaB qisqichlarga yana bitta lampa ulansa, ampermetrning ko'rsatishi qanday o'zgaradi?
4. Lampalar normal kuchlanish ostida bo'lishi uchun zarur bo'lgan reostat qarshiligini toping.
5. Zanjirdagi qarshilikni toping.

4-d rasmning yechimi

1.



2. Lampalarning qarshiligini ularning pasportida berilgan kattaliklardan foydalanib aniqlash kerak.

$$R_L = \frac{U}{I} = \frac{3V}{0.25A} = 12\ \Omega.$$

3. Zanjir qarshiligi kamayganligi sababli tok oshadi.

4. Reostat qarshiligini (lampalar normal sharoitda yonganda) tok manbaidagi va ampalardagi kuchlanish orasidagi munosabatdan kelib chiqqan holda aniqlash mumkin. Agarda batareya qisqichlaridagi kuchlanish 4,5 V *, lampalar normal yonganda ulardagi kuchlanish 3 V bo'lishini e'tiborga olsak, 1,5 V reostat qarshiligi yordamida so'ndirilishi lozim. Uchta lampadagi tokka teng bo'lgan zanjir tokida reostat qarshiligi

quyidagicha bo'ladi:

$$R_R = \frac{U}{I} = \frac{1.5V}{0.75A} = 2\ \Omega.$$

5.

$$R_Z = \frac{12\Omega}{3} + 2\ \Omega = 6\ \Omega.$$

* Normal yuklanishda batareya qisqichlaridagi kuchlanish 3,7 V ga teng. Bu kuchlanish ba'zi hollarda batareya pasportida ko'rsatiladi. Hisoblashlardagi soddalik uchun batareya kuchlanishi batareyaning EYuK iga teng deb qabul qilinadi, ya'ni: 1,5 V, 4,5 V, 9 V. Ushbu holatda 4,5 V.

5-topshiriq



5 a rasm

1. Rasmdagi zanjirning prinsipial elektr sxemasini chizing.
2. Devordagi uzib-ulagich ta’siri qaysi lampalar uchun ta’luqli?
3. Agar shtepselni A nuqtadan B nuqtaga o’tkazsak, kalit ta`siri qanday o’zgaradi?
4. Agar barcha ulangan lampalar bir xil bo’lsa, butun zanjirdagi quvvatni toping.
5. Rasmdagi zanjir uchun qanday tokka mo’ljallangan eruvchan saqlagich tanlash kerak? (5A, 10A, 25A).

5 –a rasmning yechimi

1.



2. Devordagi kalit qandil lampalari uchun taaluqli.

3. Agar shtepselni A nuqtadan ajratib, B nuqtaga ulansa, devordagi kalit xonadagi barcha lampalar uchun taluqli.

4. P = 60 Vt 4 = 240 Vt.

5. 5 A ga mo’ljallangan eruvchan saqlagich tanlash lozim.



5 b rasm

1. Rasmdagi kalit orqali lyustraning to’rtta, uchta, bitta lampalarini ulash mumkin bo’lgan elektr sxemasini chizing.
2. Xonadondagi lampalar bilan bir xil bo’lgan lampani eruvchan saqlagich o’rniga ulab, lampadan keyin simlarni qisqa tutashtirsak, lampa yonadimi?
3. Eruvchan saqlagichlardan qaysi biri kuyib qolganini xonadondagi lampalar yordamida topish mumkinmi?
4. Xonadagi lampalar bir xil bo’lsa, ularning umumiy quvvati qanday?
5. Bu zanjir uchun qanday tokka mo’ljallangan eruvchan saqlagich tanlash lozim?

5-b rasmning yechimi

1.



Pereklyuchatel П ni ikkita bir qutbli rubilniklar shaklida tasavvur qilish mumkin.

2. Xonadagi o’tkazgichlar qisqa tutashtirilganda eruvchan saqlagich o’rniga o’rnatilgan lampaning cho’g’lanish tolasi to’la ravshanlikda yonadi.

3. Kuygan eruvchan saqlagichni aniqlash uchun xonadagi lampalardan bittasini yechib olib, kalit ulangan xolda eruvchan saqlagichlar uyasiga navbatma- navbat buraladi. Lampa kuygan eruvchan saqlagich uyasiga ulanganda u xira yonib, xonadagi jihozlar ishga tushadi.

4. P = 60 Vt 6 = 360 Vt.

5. 5 A ga mo’ljallangan eruvchan saqlagichlarni tanlash kerak.



5 c rasm

1. Rasmdagi zanjiriing prinsipial elektr sxemasini chizing.
2. Agar eruvchan saqlagichlardan bittasining o’rniga lampa ulansa, xonadagi lampalarning yonishiga tasir ko’rsatadimi?
3. Agar eruvchan saqlagichdan bittasi kuyib qolsa, qanday xodisa sodir bo’ladi?
4. Agar xonadagi barcha lampalar bir xil bo’lsa, butun zanjiragi quvvatni toping?
5. Rasmdagi zanjir uchun qanday tokka mo’ljallangan eruvchan saqlagich tanlash kerak? (5A, 10A, 25A).

5-c rasmning yechimi

1.



2. Eruvchan saqlagich o’rniga burab qo’yilgan lampa xonadondagi u yoki bu lampa guruhlari bilan ketma – ket ulanadi. Shuning uchun ushbu guruh lampalari xira yonadi.

3. Eruvchan saqlagichi kuygan guruh lampalari o’chib qoladi.

4. P = 40 Vt 4 = 160 Vt.

5. 5 A ga mo’ljallangan eruvchan saqlagichlarni tanlash kerak.



5 d rasm

1. Rasmdagi 3 yoki 6 lampani ulashi mumkin bo'lgan elektr zanjiriing sxemasini chizing.
2. Agar eruvchan saqlagich o'rniga lampa ulansa, xonadagi lampalarning cho'g'lanishi o'zgaradimi?
3. Zanjirga katta quvatli dazmol ulansa, xonadagi lampalarning tolasini cho'g'lanishiga qanday tasir ko'rsatadi?
4. Xonadagi lampalarning quvvati bir xil bo'lsa, butun zanjiragi quvvat qanday bo'ladi?
5. Rasmdagi zanjir uchun qanday tokka mo'ljallangan eruvchan saqlagich tanlash lozim? (5A, 10A, 25A).

5-d rasmning yechimi



1.

2. Lampa cho'g'lanishi kamayadi, chunki eruvchan saqlagich o'rniga burab qo'yilgan lampa xonadondagi lampalar guruhi bilan ketma – ket ulanib qolishi natijasida lampadagi kuchlanish pasayadi.

3. Elektr zanjirining ulanishi zanjir qarshiligining kamayishiga, bu esa tokning oshishiga olib keladi. Xonadonga kirish kuchlanishi qiymatini o'zgarmas deb

hisoblasak, tokning oshishi o'tkazgichlardagi kuchlanish tushuvining oshishiga, lampalarda esa kamayishiga olib keladi deb xulosa qilish mumkin. (Ketma – ket ulashda kuchlanishning taqsimlanishiga binoan).

4. P = 40 Vt 8 = 320 Vt.

5. 5 A ga mo'ljallangan eruvchan saqlagichlar tanlash lozim.

6-topshiriq



6 a rasm

1. Rasmdagi zanjirning prinsipial elektr sxemasini chizing.
2. Agar B lampa kuyib qolsa nima bo'ladi?
3. Xonadagi barcha lampalarning umumiy quvvutini toping.
4. O'tkazgichning A nuqtasidagi tok qiymaini toping.
5. Svetilnik lampasini 220 V 40 Vt lampaga almashtirish mumkinmi?
6. Archadagi lampalardan bittasini 12 V 2.5A li lampa bilan almashtirish mumkinmi? Javobingizni tushuntiring.

1. **6–a rasmning yechimi**



2. Archadagi hamma lampalar o'chadi.

3. P = 40 Vt 2 + 12 V 0,28 A 12 = 120,32 Vt.

4. $I = \frac{P}{U} = \frac{120.32Vt}{127V}$ = 0,9 A.

5. Mumkin, lekin u xira yonadi.

6. Mumkin, ammo bu lampalar archadagi har bir lampa qarshiligiga qaraganda kam qarshilikka ega bo'ladi. Shuning uchun lampada 12 V, 2,5 A bo'lib, kuchlanish tushuvi kam. Uning cho'g'lanish tolasi yetarli ravshanlikda yonmaydi. Shu bilan birga bu lampalarning ulanishi archadagi qolgan lampalardagi kuchlanishning oz miqdorda oshishiga olib keladi.



6 b rasm

1. Rasmdagi zanjirning prinsipial elektr sxemasini chizing.
2. Agar archadagi lampalardan bittasi kuyib qolsa nima bo'ladi?
3. Xonadagi barcha lampalarning umumiy quvvutini qancha bo'ladi?
4. Hisoblagichdan o'tayotgan maksimal tokni toping.
5. Qandilning bitta lampasini 220 V 60 Vt li lampa bilan almashtirish mumkinmi?
6. Archadagi lampalardan bittasini 12 V 0.1A ga mo'ljallangan lampa bilan almashtirish mumkinmi? Javobingizni asoslang.

6-b rasmning yechimi

1.



2. Archadagi barcha lampalar o'chadi.

3. P = 40 Vt 4 + 12 V 0,28 A 12 = 200,32 Vt

4. $I = \frac{P}{U} = \frac{200.32Vt}{127V} =$ 1,6 A.

5. Mumkin.

6. Yo'q, bu lampa kattaroq qarshilikka ega. Tokka ulanganda undagi kuchlanish yo'l qo'yilishi mumkun bo'lgan kuchlanishdan katta bo'lib lampa kuyadi.



6 c rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirning prinsipial sxemasini chizing.
2. Agar archadagi lampalardan bittasi kuysa nima bo'ladi?
3. Agar lampalarning barchasi bir xil bo'lsa, ularning umumiy quvvatini toping?
4. Eruvchan saqlagichdan o'tayotgan maksimal tokni toping.
5. Qandildagi lampalardan bittasini 127 V 60 Vt li lampa bilan almashtirish mumkinmi?

6. Agar archadagi lampalardan bittasi kuyib qolsa, uning patronidagi kontaktlarni qisqa tutashtirish mumkinmi.

1. **6-c rasmning yechimi**



2. Archadagi barcha lampalar o’chadi.

3. P = 60 Vt 4 + 12 V 0.28 A 20 = 307,2 Vt.

4. $I = \frac{P}{U} = \frac{307.2Vt}{220V}$ = 1,4 A.

5. Yo’q. Kuyadi.

6. Mumkin, chunki bu lampalardagi kuchlanishning sezilarli oshishiga olib kelmaydi, Biroq, ularning xizmat qilish davrini bir necha marta cheklaydi



6 d rasm

1. Rasmdagi zanjirning prinsipial sxemasini chizing.
2. Archadagi lampalardan bittasi kuyib qolsa nima bo’ladi?
3. Rasmdagi barcha lampalarning umumiy quvvutini toping?
4. Elektr energiya hisoblagichdan o’tayotgan tokning maksimal qiymatini toping.
5. Qandil lampalaridan birini 127 V 60 Vt li lampa bilan almashtirish mumkinmi?
6. Archadagi girlyandani 127 V kuchlanishga qanday ulash mumkin?

6-d rasmning yechimi

1.



20 ta lampa

2. Qandil va archadagi qolgan barcha lampalar normal yonadi.

3. P = 80 Vt 4 + 12 V 0,28 A 20 = 387,2 Vt.

4. I $=\frac{387.2Vt}{220V}$ = 1,76 A.

5. Yo'q, kuyadi.

6. Archa girlyandasini lampalar soni teng bo'lgan ikkita parallel tarmoqli zanjirga ajratib ulash lozim.

7 topshiriq

7 a rasm

1. 30 kun ichidagi elektroenergiya sarfini hisoblang.
2. Sarflangan elektroenergiya narxini hisoblang.
3. Hisoblagich diskining bitta aylanishiga mos elektroenergiyasini aniqlang.
4. Hisoblagichga ulanishi mumkin bo'lgan iste`molchilarning maksimal quvvatini toping.
5. Sarflangan elektro energiyani kichik qismini kVt soatning 1/100 ulushlarida qanday aniqlash mumkin?

7-a rasmning yechimi

1. A = 563,4 kVt soat - 382,5 kVt soat = 180,9 kVt soat.

2. Elektroenergiya qiymati =180,9 kVt soat 60 so'm =10854 so'm

3. $A_{ayl} = \frac{1kVt\ soat}{2500ayl} = \frac{1000Vt3600s}{2500ayl} = 1440\frac{Vt\ s}{ayl}$

4. P = U I = 220 V 5 A = 1100 Vt.

5. Sarflangan elektr energiyasining kichik qismini hisoblagich diskining aylanishlari soni bo'yicha o'lchash mumkin.



Показания счетчика на 1 сентября

Показания счетчика на 30 сентября

7 b rasm

1. 30 kun ichidagi elektroenergiya sarfini toping.
2. Sarflangan elektroenergiya narxini hisoblang.
3. Hisoblagich diskining bitta aylanishiga mos keluvchi elektroenergiya qiymatini toping.
4. Rasmdagi hisoblagichga ulanishi mumkin bo'lgan istemolchilarning umumiy quvvatini toping.
5. Sarflangan elektroenergiya kichik ulushini kVt soatning 1/100 ulushlarida qanday aniqlash mumkin?

7-b rasmning yechimi

1. A = 475,9 kVt soat - 149,8 kVt soat = 326,1 kVt soat.

2. Elektroenergiya narxi = 326,1 kVt soat 60 so'm = 19566 so'm.

3. $A = \frac{1kVt\ soat}{2500ayl} = \frac{1000Vt3600s}{2500ayl} = 1440\frac{Vt\ s}{ayl}$

4. P = I U = 10 A 220 V 2,2 kVt.

5. Sarflangan elektr energiyasini kichik qismini hisoblagich diskining aylanishlari soni bo'yicha o'lchash mumkin.

c rasm

1. 30 kun ichidagi elektroenergiya sarfini hisoblang.
2. Sarflangan elektroenergiyaning narxini hisoblang.
3. Hisoblagich diskining bitta aylanishiga mos kelgan elektroenergiyasini hisoblang.
4. Rasmdagi hisoblagichga ulanishi mumkin bo'lgan iste`molchilarning umumiy quvvatini toping.
5. Sarflangan elektroenergiyaning kichik ulushini kVt soatning 1/100 ulushlarida qanday aniqlash mumkin?

7–c rasmning yechimi

1. A = 827,9 kVt soat – 248,4 kVt soat = 579,5 kVt soat.

2. Elektroenergiya narxi = 579,5 kVt soat 60 so'm = 34770 so'm.

3. $A_{ayl} = \frac{1kVt\ soat}{2500ayl} = \frac{1000Vt3600s}{2500ayl} = 1440\frac{Vt\ s}{ayl}$

4. p = I U = 5 A 127 V = 635 Vt.

5. Sarflangan elektroenergiyasining kichik qismini hisoblagich diskining aylanishlari soni bo'yicha o'lchash mumkin.



7 d rasm

1. 30 kun ichidagi elektroenergiya sarfini hisoblang.

2. Sarflangan elektroenergiya narxini hisoblang.
3. Hisoblagich diskining bitta aylanishiga mos keluvchi elektroenergiyani qiymatini toping.
4. Hisoblagichga ulanishi mumkin bo'lgan iste`molchilarning maksimal quvvatini toping.
5. Sarflangan elektroenergiyaning kichik ulushini kVt soatning 1/100 ulushlarida qanday aniqlash mumkin?

7-d rasmning yechimi

1. A = 957,5 kVt soat - 437,7 kVt soat = 519,8 kVt soat.

2. Elektroenergiya narxi :=519,8 kVt soat 60 so'm =31188 so'm.

3. $A_{ayl} = \frac{1kVt\ soat}{2500ayl} = \frac{1000Vt3600s}{2500ayl} = 1440\frac{Vt\ s}{ayl}$

4. P = I U = 10 A 127 V = 1270 Vt.

5. Sarflangan elektr energiyasining kichik qismini hisoblagich diskining aylanishlari soni bo'yicha o'lchash mumkin.

8-topshiriq



8 a rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirining prinsipial sxemasini chizing?
2. Reostatning vazifasini tushuntiring?
3. Lampaning normal yonishi uchun reostat surgichi qanday xolatda bo'lishi mumkin?
4. Lampadagi kuchlanishni reostat yordamida qanday oraliqda o'zgartirish mumkin?
5. Tasvirlangan reostat berilgan zanjirga ulanishi mumkinmi? Javobingizni asoslang.

6. Reostat surgichini qanday xolatida zanjirdagi quvvat minimal bo'ladi? Javobingizni asoslang?

8–a rasmning yechimi

1.



2. Reostat vazifasi-lampadagi kuchlanishni boshqarishdan iborat.

3. Bu savolga javob berish uchun birinchi o'rinda lampa qarshiligini uning pasportidan aniqlash lozim, ya'ni:

$$R_L = \frac{U^2}{P} = \frac{(127V)^2}{60Vt} = 270\ \Omega.$$

Agar tarmoq kuchlanishi 220 V bo'lsa, (voltmeter ko'rsatishiga qarang) u holda lampaning normal yonishi uchun reostat 93 V kuchlanishni so'ndirishi kerak.

Ammo ketma-ket ulanishda kuchlanish zanjir qismlaridagi qarshilikka proporsional taqsimlanadi. Shuning uchun:

$$\frac{127V}{270\Omega} = \frac{93V}{R_R} \qquad R_R = 200\ \Omega.$$

Reostat 200 qarshilikka ega bo'lishi uchun uning surilma kontakti B va C nuqtalar orasida turishi kerak.

4. Lampadagi kuchlanish o'zgarishining yuqori qiymati uning pasportida ko'rsatilgan bo'lib, 127 V ga teng. Quyi qiymati reostat qarshiligining maksimal ulanishi natijasida aniqlanadi. Bunda zanjirning to'la qarshiligi 500 Ω + 270 Ω = 770 Ω.

Reostatning to'la qarshiligida zanjirdagi tok qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$I = \frac{220V}{770\Omega} = 0{,}3\ A.$$

Lampadagi kuchlanishning quyi qiymati:

$$U = I\,R_L = 0{,}3\ A \cdot 270\ \Omega = 81\ V.$$

5. Mumkin. Chunki rheostat uchun qo'yilishi mumkin bo'lgan maksimal tok 0,5 A bo'lib, lampaning normal toki 0,4 A dan kich

6. $P = \frac{U^2}{R}$ formulaga binoan, zanjir qarshiligi maksimal R bo'lib, reostat surgichi A nuqtada turganda zanjirdagi quvvat minimal bo'ladi.



8 b rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirining prinspial sxemasini chizing.
2. Zanjirdagi reostat vazifasi nimadan iborat?
3. Lampani normal yonishi uchun reostat surguchi taxminan qanday xolatda bo'lishi kerak?
4. Reostat yordamida lampadagi kuchlanishni qanday oraliqda o'zgartirish mumkin?
5. Rasmda tasvirlangan reostat ushbu zanjirga ulanishi mumkinmi? Javobingizni asoslang.
6. Lampani normal yongan xolatidagi zanjir quvvatini toping.

8-b rasmning yechimi

1.



2. Reostatdagi kuchlanishni kamaytiradi.

3. Lampa qarshiligini uning pasportida ko'rsatilgan kattaliklardan foydalanib oldindan topish zarur:

$$R_L = \frac{U^2}{P} = \frac{(127V)^2}{300Vt} = 54\ \Omega.$$

Agar tarmoq kuchlanishi (voltmetr ko'rsatishiga qarang) 220 V ga teng bo'lsa, u holda lampaning normal yonishi uchun reostat 93 V kuchlanishni so'ndirishi kerak. Kuchlanishni zanjirning ketma-ket ulangan qismlaridagi qarshilikka proporsional taqsimlanishini hisobga olsak, u ho

$$\frac{127V}{54\Omega} = \frac{93V}{R_R};\qquad R_R = 40\ \Omega$$

Reostatdagi qarshilik 40 bo'lshi uchun uning surilma kontakti B va C nuqtalar orasida turishi kerak.

4. Kuchlanish o'zgarishining yuqori qiymati lampaning passport ko'rsatkichida berilgan bo'lib, 127 V ga teng. Quyi qiymati rheostat qarshiligining maksimal ulanishi bilan aniqlanadi. Bunda butun zanjir qarshiligi: 100 Ω + 54 Ω = 154 Ω bo'ladi. Reostatning to'la qarshiligida zanjirdagi tok kattaligi quyidagicha aniqlanadi:

$$I = \frac{220V}{154\Omega} = 1{,}4\ A$$

Lampadagi kuchlanishning quyi qiymati :

$$U = I R_L = 1{,}4\ A\ 54\ \Omega = 75{,}6\ V.$$

5. Mumkun, chunki reostatdan o'tishi mumkun bo'lgan tok qiymati 3 A, lampadan o'tishi mumkun bo'lgan tok qiymati 2,4 A dan kichik.

6. $P = I\ U_Z = \frac{P}{U} U_Z = \frac{300Vt}{127V} 220\ V = 530\ Vt.$



8 c rasm

1. Rasmda tasvirlangan elektr zanjirining prinspial sxemasini chizing.
2. Zanjirdagi reostat vazifasi nimadan iborat?
3. Zanjir ulanishidan oldin reostat surgichi qanday xolatda bo'lishi mumkin?
4. Reostat yordamida lampadagi kuchlanishni qanday oraliqda o'zgartirish mumkin?
5. Sxemada tasvirlangan reostat ushbu zanjirga ulanishi mumkinmi? Javobingizni asoslang.
6. Lampadagi kuchlanishni normal xolidagi quvvatini toping.

8-c rasmning yechimi

1.



2. Reostat lampadagi kuchlanishni kamaytiradi.

3. Reostat surgichi shunday holatda joylashgan bo'lishi kerakki, bunda lampadagi kuchlanish 127 V dan oshmasligi kerak. Tarmoq kuchlanishi 220 V bo'lganda reostatda 93 V kuchlanish so'ndirilishi kerak. Reostatning ulangan qismining qarshiligini aniqlash uchun oldin lampa qarshiligini uning pasportida ko'rsatilgan kattaliklardan foydalanib aniqlash zarur:

$$R_L = \frac{(127V)^2}{600Vt} = 27\ \Omega.$$

Endi ketma – ket ulangan qarshiliklarda kuchlanishning taqsimlanishi qonuniga asoslanib, reostatning tok o'tayotgan qismidagi qarshiligini topamiz:

$$\frac{127V}{27\Omega} = \frac{93V}{R_R}\ ; \qquad R_R = 20\ \Omega\ .$$

Reostatning tok o'tayotgan qismi 20 Ω qarshilikka ega bo'lishi uchun, uning surgichini C va D nuqtalar orasiga o'rnatish kerak.

4. Lampadagi kuchlanish o'zgarishining yuqori qiymati uning pasportida 127 V ekanligi berilgan, quyi qiymati esa reostat qarshiligidan maksimal foydalanish orqali o'rnatilad. Bunda zanjir qarshiligi:

$$R_Z = 27\ \Omega + 30\ \Omega = 57\ \Omega.$$

Reostatning maksimal qarshiligida zanjirdagi tokning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$I = \frac{220V}{57\Omega} = 4\ A$$

Lampadagi kuchlanish o'zgarishining quyi qiymati:

$$U = I R_L = 4\ A \cdot 27\ \Omega = 108\ V.$$

5. Mumkin, chunki reostatga qo'yilishi mumkin bo'lgan 5 A tok lampadagi tok qiymati 4,7 A dan kichik.

6. $P = I\ U_Z = \frac{P}{U} U_Z = \frac{600Vt}{127V}\ 220\ V = 1034\ Vt.$



8 d rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirining prinsipial sxemasi chizing.
2. Sxemadagi reostat vazifasini tushuniring.
3. Zanjir ulanishidan oldin reostat surgichi taxminan qanday xolatda bo'lishi kerak?
4. Reostatga qo'yilishi mumkin bo'lgan maksimal kuchlanishni aniqlang.
5. Sxemada tasvirlangan reostat ushbu zanjirga ulanish mumkinmi? Javobingizni asoslang.
6. Elektr plitadagi kuchlanishni normal xolidagi quvvatini toping.

8-d rasmning yechimi

1.



2, 3, 4 , 5, 6 - topshiriqlarning javoblari oldingi topshiriqlarni javoblari bilan bir xil. Chunki, lampalar o'rniga ularning quvvatlariga mos bo'lgan elektr plitasi o'rnatilgan.

9-topshiriq



9 a rasm

1. Rasmdagi zanjirning prinsipial elektr sxemasini chizing.
2. Sxemadagi reostat vazifasini tushuntiring.
3. Reostat surgichining lampani normal yonishini taminlovchi xolatini toping? Javobingizni asoslang.
4. O'lchov asboblarining ko'rsatishi yordamida berilgan zanjir uchun qanday kattaliklarni anqlash mumkin?
5. O'lchov asboblarining ko'rsatishidan foydalanib lampa qisqichlaridagi kuchlanishni toping.
6. Zanjir va sekundomer bir vaqtda ishga tushurilgan xolda lampadagi elektroenergiya sarfini hisoblang?

9–a javob

1.



2. Reostatning vazifasi - lampadagi kuchlanishni boshqarish.

3. Lampa qarshiligini oldindan topamiz:

$$R_L = \frac{(127V)^2}{600Vt} = 27\ \Omega\ .$$

Ketma – ket ulangan qarshiliklarda kuchlanishning taqsimlanish qonuniga asosan, reostatning ishchi qismidagi qarshilik qiymatini topamiz. Bunda, lampalarning normal yonishi uchun reostatda 93 V kuchlanish so'ndirilishi lozim, ya'ni:

$$\frac{127V}{27\Omega} = \frac{93V}{R_R} \quad R_R = 20\ \Omega$$

Shu bilan birga, reostat surgichi D nuqta yaqinida turishi kerak.

4. Zanjirdagi tok va kuchlanishni, shu bilan birga zanjirning ishlash vaqtini to'g'ridan to'g'ri o'lchash mumkin. Zanjir, lampa va reostat qarshiligini; lampa va reostatdagi kuchlanishni; zanjirning, lampaning va reostatning quvvatini; zanjirdagi, lampadagi va reostatdagi sarflangan elektroenergiyasini hisoblash mumkin.

5. $U_L = I R_L = 5\ A\ \ 27\ \Omega = 135\ V.$

6. $A = U_L I_t = 135\ V\ \ 5\ A\ \ 187{,}5\ s = 35\ Vt$ soat.



9 b rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirining prinsipial sxemasini chizing.
2. Zanjirdagi reostat vazifasini tushuntiring.
3. Lampaning normal yonishini taminlovchi reostat surgichini taxminiy xolatini ko'rsating va javobingizni asoslang.
4. Zanjirda qo'llanilgan o'lchov asboblari yordamida qanday kattaliklarni aniqlash mumkin?
5. Zanjirdagi lampa qarshiligini toping.
6. Zanjir va sekundomer bir vaqtda ishga tushurilgan xoldagi lampadagi elektroenergiya sarfini hisoblang.

9-b rasmning yechimi

1.



2. Reostat vazifasi – lampadagi kuchlanishni rostlash.

3. Lampa qarshiligini uning pasportida ko'rsatilgan kattaliklardan foydalanib topamiz:

$$R_L = \frac{U}{I} = \frac{2.5V}{1.5A} = 1{,}7\ \Omega .$$

Manba kuchlanishini 4,5 V deb hisoblasak, (aslida bu kuchlanish EYuKdan kichik) lampadagi normal kuchlanish 2,5 V da reostat 2 V kuchlanishni so'ndirishi kerak. U holda, reostatning ishchi qismidagi qarshilikni qiymati R quyidagicha aniqlanadi:

$$R_R = \frac{U}{I} = \frac{2V}{1.5A} = 1{,}3\ \Omega .$$

Bu esa reostat surgichining holati A va B nuqtalar orasiga to'g'ri keladi.

4. Zanjirdagi tok, lampadagi kuchlanish va zanjirning ishlash vaqtini bevosita o'lchash mumkun. Lampa qarshiligi, quvvati, lampa tamonidan sarf qilingan elektr energiyani hisoblash mumkin.

5. $R_L = \frac{U}{I} = \frac{2.5V}{1.5A} = 1{,}7\ \Omega$

6. A = I U t = 1,5 A 2,5 V 400 s = 1500 Vt s.



9 c rasm

1. Rasmdagi elektr zanjirning prinspial sxemasini chizing.
2. Zanjirga reostat nima maqsadda ulangan va u ko'zlangan maqsad uchun yaroqlimi?
3. Elektr isitgichning normal ishlashini taminlash uchun reostat surgichi qanday xolatda turishini ko'rsating.
4. Asboblar Yechimiida keltirilgan qiymatlar yordamida zanjirning qanday kattaliklarini aniqlash mumkin?
5. Elektr isitgich qisqichlaridagi kuchlanish va quvvatni aniqlang.

6. Sekundamer bilan bir vaqtda ishga tushurilgan isitgichdagi elektr energiya sarfini aniqlang.

9-c rasmning yechimi

1.



2. Reostat elektr plitasidagi kuchlanishni kamaytirish uchun zarur. Plitadagi tokni topamiz: $I = \frac{P}{U} = \frac{300Vt}{127V} =$ 2,3 A.

Reostatdagi tok 3 A ga teng. Demak, reostat ko'rsatilgan maqsad uchun yaroqli.

3. Elektr plitasining qarshiligini oldindan topamiz:

$$R = \frac{U^2}{P} = \frac{(127V)^2}{300Vt} = 54\ \Omega.$$

Reostat surgichi holatidan tarmoq kuchlanishi 220 V deb xulosa chiqarish mumkin. (Tarmoq kuchlanishi standart 127 V yoki 220 V ga teng).

Isitgichdagii kuchlanish normal bo'lganda, reostatdagi kuchlanish 220 V - 127 V = 93 V bo'lishi kerak. Elektr isitgichi va reostatning ketma – ket ulanganligini hisobga olsak, u holda proporsiya tuzish mumkin:

$$\frac{127V}{54\Omega} = \frac{93V}{R_R}; \qquad R_R = 40\ \Omega\ .$$

Reostatning bu qarshiligi uning surgichini B va C nuqtalar orasidagi xolatiga mos keladi.

